



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



”BMT VA YANGI O‘ZBEKISTON”.

Toxirova Diyora Voxid qizi
Toshkent davlat yuridik universiteti
Ommaviy huquq fakulteti 2-kurs talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) va Yangi O‘zbekiston o‘rtasidagi hamkorlikning yangi bosqichi, mamlakatimizning xalqaro maydondagi tashabbuslari hamda BMTning barqaror rivojlanish maqsadlari bilan uyg‘un islohotlar tahlil qilinadi. Unda O‘zbekistonning global muammolarni hal etishdagi o‘rni, inson huquqlari, ekologiya, yoshlar siyosati va mintaqaviy barqarorlikni ta‘minlash borasidagi sa‘y-harakatlari yoritilgan. Maqola BMT va Yangi O‘zbekiston o‘rtasidagi hamkorlikning strategik ahamiyatini ko‘rsatib beradi.*

Kalit so‘zlar: *BMT, Yangi O‘zbekiston, tashqi siyosat, barqaror rivojlanish, inson huquqlari, ekologiya, yoshlar siyosati, xalqaro hamkorlik.*

Annotation: *This article analyzes the new stage of cooperation between the United Nations (UN) and New Uzbekistan, highlighting the country's international initiatives and reforms aligned with the UN Sustainable Development Goals. It discusses Uzbekistan's growing role in addressing global challenges, promoting human rights, environmental protection, youth policy, and ensuring regional stability. The article emphasizes the strategic importance of UN–Uzbekistan cooperation in building a peaceful and sustainable future.*

Keywords: *United Nations, New Uzbekistan, foreign policy, sustainable development, human rights, ecology, youth policy, international cooperation.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается новый этап сотрудничества между Организацией Объединённых Наций (ООН) и Новым Узбекистаном, а также анализируются международные инициативы страны и проводимые реформы, согласованные с Целями устойчивого развития ООН. Раскрывается роль Узбекистана в решении глобальных проблем, защите прав человека, экологии, молодежной политике и обеспечении региональной стабильности. В работе подчеркивается стратегическое значение сотрудничества ООН и Нового Узбекистана.*

Ключевые слова: *ООН, Новый Узбекистан, внешняя политика, устойчивое развитие, права человека, экология, молодежная политика, международное сотрудничество.*

I. KIRISH.

Bugungi globallashuv davrida har bir davlatning xalqaro maydondagi o‘rni va nufuzi uning tashqi siyosatidagi ochiqlik, hamkorlikka tayyorlik va barqaror rivojlanish yo‘lidagi sa‘y-harakatlariga bog‘liqdir. Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekiston Respublikasining



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) bilan o‘zaro aloqalari yangi bosqichga ko‘tarilganini alohida ta’kidlash lozim. “Yangi O‘zbekiston” g‘oyasi asosida shakllanayotgan siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy islohotlar BMTning asosiy maqsadlari – tinchlik, xavfsizlik, inson huquqlari va barqaror taraqqiyot tamoyillari bilan hamohangdir.

O‘zbekiston Respublikasi 1992-yil 2-martda BMTga a‘zo bo‘lib kirgan. Shu kundan boshlab mamlakatimiz tashkilot bilan o‘zaro hamkorlikning turli yo‘nalishlarida faol ishtirok etib kelmoqda. Yangi O‘zbekiston siyosatida esa bu hamkorlik yangi mazmun bilan boyidi: global muammolarga milliy yechimlar taklif etilmoqda.

BMT VA O‘ZBEKISTON O‘RTASIDAGI HAMKORLIK TARIXI.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, xalqaro hamjamiyatning to‘laonli a‘zosi sifatida dunyo bilan teng hamkorlikni yo‘lga qo‘ydi. BMT bilan ilk bosqichdagi aloqalar asosan ijtimoiy rivojlanish, sog‘liqni saqlash, ta’lim, atrof-muhitni muhofaza qilish sohalariga qaratilgan edi.

1993-yilda Toshkentda BMTning vakolatxonasi ochilishi ikki tomonlama hamkorlikning amaliy bosqichini boshlab berdi. Shu yillardan boshlab, O‘zbekiston UNICEF, UNESCO, WHO, UNDP, FAO kabi BMTning ixtisoslashgan agentliklari bilan samarali aloqalar o‘rnatdi.

Shuningdek, O‘zbekiston mintaqaviy xavfsizlik, terrorizmga qarshi kurash, suv resurslarini boshqarish va ekologik muammolarni hal etish borasida BMT bilan yaqin hamkorlikni yo‘lga qo‘ydi.

II. Metodologiya:

YANGI O‘ZBEKISTON TASHQI SIYOSATINING USTUVOR YO‘NALISHLARI.

Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev rahbarligida O‘zbekiston tashqi siyosatida “Ochiq, pragmatik va faol diplomatiya” tamoyili ustuvor yo‘nalishga aylandi. Bu tamoyil BMT bilan munosabatlarni ham tubdan yangiladi.

Yangi O‘zbekiston tashqi siyosatida quyidagi ustuvorliklar ajralib turadi:

1. Mintaqaviy barqarorlik va tinchlikni ta’minlash.
2. Inson huquqlari, qonun ustuvorligi va adolatni qaror toptirish.
3. Barqaror iqtisodiy o‘sish va ekologik xavfsizlikni ta’minlash.
4. Yoshlar, gender tenglik va innovatsion rivojlanishga e’tibor.

O‘zbekistonning yangi tashqi siyosati BMTning 2030-yilgacha mo‘ljallangan Barqaror rivojlanish kun tartibi bilan uzviy bog‘liqdir. Ushbu maqola BMT va Yangi O‘zbekistonning ustuvor yo‘nalishlari hamda hamkorlikni kengaytirish va keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilishini to‘liq anglab yetish uchun badiiy va ilmiy maqola manbalariga murojaat qilingan.

III. Natijalar

BMT DOIRASIDAGI O‘ZBEKISTON TASHABBUSLARI VA ISLOHOTLARI.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



So'nggi yillarda O'zbekiston BMT minbaridan turib, qator xalqaro tashabbuslarni ilgari surdi. Ularning eng muhimlari quyidagilardir:

-Markaziy Osiyo mintaqasida barqaror taraqqiyot va xavfsizlikni ta'minlash tashabbusi (2017-yil).

-Orolbo'yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar hududiga aylantirish tashabbusi (2018-yil).

-BMTning "Yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiya" sini ishlab chiqish taklifi (2019-yil).

-Inson huquqlarini himoya qilish milliy strategiyasini BMT bilan hamkorlikda amalga oshirish (2020-yil).

O'zbekistonning bu tashabbuslari xalqaro hamjamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Xususan, 2021-yilda Orolbo'yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar zonasi deb e'tirof etish bo'yicha BMT rezolyutsiyasi qabul qilindi.

IV.Muhokama

BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI SARI: O'ZBEKISTON

O'zbekiston BMTning "2030-yilga mo'ljallangan 17 ta Barqaror rivojlanish maqsadi (BRM)" ni milliy strategiyasiga integratsiya qilgan.

Bu yo'nalishlarda quyidagi yutuqlarni ko'rish mumkin:

-Qashshoqlikni qisqartirish: 2017–2024 yillarda aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish orqali minglab oilalar qamrab olindi.

-Sog'lom turmush va sifatli ta'lim: BMT agentliklari bilan birgalikda onalar va bolalar salomatligini yaxshilash dasturlari amalga oshirilmoqda.

-Ekologik xavfsizlik: Orol dengizi fojeasining oqibatlarini yumshatish, yashil energiya va suv resurslarini tejash bo'yicha BMT bilan hamkorlikda loyihalar olib borilmoqda.

-Gender tengligi: Xotin-qizlarning siyosiy faolligi oshib, BMT bilan hamkorlikda "Gender tenglik strategiyasi" ishlab chiqildi.

INSON HUQUQLARI, EKOLOGIYA VA YOSHLAR SIYOSATIDA HAMKORLIK.

BMT va O'zbekiston o'rtasidagi hamkorlik inson huquqlarini himoya qilish sohasida ham sezilarli natijalar berdi.

2020-yilda O'zbekiston BMT Inson huquqlari kengashi a'zoliciga saylandi. Bu mamlakatning xalqaro maydondagi obro'sini yanada mustahkamladi.

Yoshlar siyosati sohasida esa O'zbekiston BMT Yoshlar strategiyasi (Youth-2030) doirasida faol hamkorlik qilmoqda. "Yoshlar parlamenti", "Yoshlar ishlari agentligi", "Yoshlar siyosati strategiyasi" kabi dasturlar aynan BMT yo'nalishlariga uyg'un holda ishlab chiqilgan.

Atrof-muhitni muhofaza qilish, suv tanqisligi, iqlim o'zgarishiga moslashish masalalarida O'zbekistonning tajribasi mintaqa uchun namuna sifatida ko'rilmogda.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



V.XULOSA

BMT va Yangi O‘zbekiston o‘rtasidagi hamkorlik — bu nafaqat tashqi siyosiy munosabatlar, balki barqaror rivojlanish, insonparvarlik, tinchlik va taraqqiyot yo‘lidagi hamkorlikdir.

O‘zbekistonning BMT doirasidagi tashabbuslari va amaliy ishlari mamlakatni jahon hamjamiyatida ishonchli, faol va mas’uliyatli hamkor sifatida namoyon qilmoqda.

Yangi O‘zbekiston konsepsiyasi BMTning asosiy qadriyatlari – tinchlik, adolat, taraqqiyot va hamkorlik bilan uyg‘unlashgan holda, xalqaro maydonda o‘zining mustahkam o‘rnini topmoqda.

Zamonaviy xalqaro munosabatlar ularda ko‘p tomonlama diplomatiyaning roli ortib borayotganligi bilan ham xarakterlanadi. Ko‘p tomonlama diplomatiya xalqaro hayotning Birlashgan millatlar tashkiloti (BMT) faoliyati bilan bog‘liq ko‘plab muhim jabhalarini qamrab oladi. O‘tgan qisqa davrda O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining belgilovchi asosiy yo‘nalishlaridan biri — hamkorlikni mustahkamlash maqsadida BMT bilan sherikligimiz sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasidagi nutqlari (2017–2024).
2. BMTning O‘zbekiston bilan hamkorlik dasturi (UNDP Uzbekistan Reports, 2022–2024).
3. “Yangi O‘zbekiston strategiyasi – 2030” hujjati.
4. O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi rasmiy sayti — www.mfa.uz.
5. BMT rasmiy sayti — www.un.org.

